

Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2026-yil yanvar-aprel oylari uchun


- I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Xorazm viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2026-yilning 1- may holatiga ko'ra, viloyatda 3 851 ta sanoat korxonasi faoliyat yuritib kelmoqda, shundan 684 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,8 %) Urganch shahriga, 469 tasi (12,2 %) Urganch tumaniga, 430 tasi (11,2 %) Xonqa tumaniga, 352 tasi (9,1 %) Qo'shko'pir tumaniga va 272 tasi (7,1 %) Shovot tumaniga to'g'ri keladi.

Viloyatda 2026-yilning yanvar-aprel oylarida 303 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil qilingan bo'lib, shularning 62 tasi Urganch tumaniga, 51 tasi Urganch shahriga, 47 tasi Xonqa tumaniga, 47 tasi Shovot tumaniga to'g'ri keladi.

Korxonalar soni
1-may holatiga ko'ra



II. Xorazm viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2026-yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 8 229,4 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,1 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyati	11 273,3	108,0
Urganch shahri	1 736,0	108,3
Xiva shahri	212,9	117,3
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot tumani	208,5	110,6
Gurlan tumani	210,1	112,3
Qo'shko'pir tumani	395,6	113,1
Urganch tumani	700,4	113,3
Hazorasp tumani	323,9	110,6
Tuproqqal'a tumani	4 114,3	96,5
Xonqa tumani	636,5	107,1
Xiva tumani	237,2	108,4
Shovot tumani	515,2	109,3
Yangiariq tumani	390,1	110,8
Yangibozor tumani	395,1	112,1

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqal'a tumanida (66 415,0 ming so'm), Urganch shahrida (10 999,6 ming so'm) o'rtacha viloyat ko'rsatkichidan (5 440,5 ming so'm) sezilarli darajada yuqori bo'lgan.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija Xiva shahrida (115,5 %), Qo'shko'pir tumanida (111,2 %), Urganch tumanida (110,7 %), Gurlan tumanida (110,4 %), Yangibozor tumanida (110,4 %) va Yangiariq tumanida (108,9 %) qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-aprel oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-aprel oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 10 674,6 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 94,7 % ni tashkil etgani holda, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 1,1 mlrd so'm (0,01 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 509,2 mlrd so'm (4,5 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 88,4 mlrd so'm (0,8 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026-yilning yanvar-aprel oylarida





III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 46 752,3 tonna paxta tolasi (2025-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 2 aprelga oshgan), 2 281,8 tonna o'simlik yog'i (9,2 % ga oshgan), 8 840,6 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (16,6 % ga kamaygan), hamda 28 352 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillardan tashqari) (5,4 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-aprel*	2025-yil yanvar-aprel*	2026-yil yanvar-aprel
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillardan tashqari), dona	23 244	29 955	28 352
Maxsus yengil avtomobillar, dona	7 434	12 660	16 844
Paxta tolasi, t	41 611,0	32 212,5	46 752,3
Shakar, t	40 618,6	49 507,1	-
O'simlik yog'i, t	3 505,5	2 089,9	2 281,8
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t	15 297,1	10 600,1	10 600,1
Paxta chigiti, t	62 744,4	52 615,4	72 363,3
Paxtadan yigirilgan ip, t	11 674,3	18 481,1	49 462,2

**2024-2025-yillarning yanvar-aprel oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,4 % (2025-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 85,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,6 % (2025-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 120,4 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,04 % ni (2025-yilning yanvar-aprel oylarida 0,05 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 37,5 % (41,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 5,3 % (5,3 %), quyi texnologiyali 52,2 % (48,6 %) ni tashkil etgan.





Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish yanvar-aprel oylarida

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2026-yilning yanvar-aprel oylarida 28 352 dona " Damas " (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,4 % ga kamaygan), 16 844 dona maxsus yengil avtomobillari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 33,0 % ga oshgan) ishlab chiqarildi.



Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan
ishlab chiqarilgan yengil va maxsus yengil avtomobillar, donada
yanvar-aprel oylarida





Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar-aprel oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 00,0 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 000,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-aprel*	2025-yil yanvar-aprel*	2026-yil yanvar-aprel
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	397,1	434,5	331,8
<i>shundan:</i>			
<i>yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)</i>	397,1	434,5	331,8
<i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan)</i>	0	0	0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	63,5	89,4	82,1

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025 -yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 2,0 % ga ko'payganligi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 50,6 % ga kamayganligi, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 18,3 % ga oshganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-aprel*	2025-yil yanvar-aprel*	2026-yil yanvar-aprel
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	5 051 624,0	4 330 799,0	2 702 623,0
Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash	64 501 322,0	63 843 409,0	64 816 472,0



bo'yicha
xizmatlar, ming so'm

Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	10 501 632,0	20 043 129,0	33 100 089,0
---	--------------	--------------	--------------

**2024-2025-yillarning yanvar-aprel oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Xorazm viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati



D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
U. Tadjimuratov
62 227-77-88 (9010)

Manzil:

